

## **Abdulla Qodiriy “Julqunboy”ning jinoyat ishi**

“Mushtum” jurnalining mas'ul ishchisi bo'lg'on Abdulla Qodiriy O'rta Osiyo Davlat siyosiy idorasi tomonidan 1926 yil 8 martda qamoqqa olindi.

Abdulla Qodiriy Sho'ro hukumatiga qarshi qalam tebratib, uning obro'sini tushirishi va sho'ro hukumatida ishchi, kambag'al mehnatkashlar foidasi uchun ishlab turg'on ziyolilarning sho'ro hukumatiga qarshi qilish maqsadi bilan “Mushtum” jurnalining 27-sonida “Yig'indi gaplar” sarlavhasi bilan yozg'on bosh maqolasida O'zbekiston Ijtimoiy Sho'rolar Jumhuriyatining Markaziy ijroqo'mi raisi o'rtoq Oxunboboyev ham Markaziy ijroqo'm prizidiumi a'zosi o'rtoq Ikromovlarni masxara va kulgu yo'li bilan sababsiz va qonunsiz tanqid qilg'on. Shuning bilan birga O'zbekiston Ijtimoiy Sho'ro Jumhuriyatining boshliqlarining ko'pchilik ishchi-dehqon mehnatkashlar oldida obro'larini tushurmakchi bo'lg'on. Shul maqolaning bosilishi uchun mas'ul muharrir tomonidan ijozat berilmagan bo'lsa ham, Abdulla Qodiriy o'zi “Mushtum” jurnalining mas'ul ishchisi bo'lg'onidan foydalanib “Ovsar” imzosi bilan bostirg'on.

Shundan keyin, Abdulla Qodiriyga o'rtoqliq tanbehi berilib, ikkinchi bu holda betartiblik qilmaslig'in buyurilg'on bo'lsa ham, unga qaramasdan va avvalgi yozg'on maqolasi bilan qanoatlanmasdan bir muxbirning “Bon-bon” degon she'riga mas'ul muharrir muovini tomonidan “bosilmasun”, deb qo'yilg'on rezolyutsiyani o'chirib, uning o'rnig'a “bosilsun” qilib tuzatib, Eski shahar birinchi bosmaxonasi mudiriga berib ham uni o'zi tuzatgan rezolyutsiyasi bilan aldab 28-son “Mushtum” jurnalig'a bostiradur.

Abdulla Qodiriy qamoqqa oling'ondan keyin “Man nohaq qamoqqa olindim”, deb Davlat siyosiy idorasiga norozilig'in bildirdi. Shunga ko'ra man davlat prokurori bo'lg'onim uchun O'rta Osiyo Davlat siyosiy idorasidan Abdulla Qodiriyning ishini so'rab olib, tekshirib va haqiqat qilib ko'rganimda shul yuqorida so'zlanib o'tqon jinoyatlari tasdiq qilinib, Abdulla Qodiriyning bundan ilgari ham shunga o'xshag'on maqolalari bo'lib turg'oni uchun yuqorida ko'rsatilg'on norozilig'i Davlat prokurori tomonidan nohaq topildi.

Abdulla Qodiriyning qilgʻon jinoyatlari Jinoyat Qonun majmuasining 72-105 ham 116-moddalariga toʻgʻri kelgani ham “Mushtum” jurnalining 27-28-sonlari torqolgʻanidan soʻng jumhuriyatning har bir burchaklaridagi ziyolilardan “Abdulla Qodiriyning qilgʻon jinoyati uchun tezlik bilan hukmga toritib, namuna boʻlaroq sud qilinsin!”, deb yuborilgʻon talabnomalarga binoan Abdulla Qodiriyning jinoyat ishini tezlik bilan namuna boʻlarliq tartibda sud qilib tamom qilishni Toshkent viloyat sudiga topshirdim.

Oʻzbekiston Jumhuriyati prokurori I.GʻOZIEV

**“Qizil Oʻzbekiston” gazetasi. 1926 yil 16 may**